

2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun
dastlabki ma'lumot



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(62) 224-65-09



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **661,8 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **65,9 mln. AQSH** dollariga yoki **11,1 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **661,8** +11,1 %

(2022- y.: **595,9**)



Saldo

2023- y.: - **208,9** (2022 y.: - 202,1)



Eksport

2023- y.: **226,5** +15,0 %

(2022- y.: **196,9**)



Tovarlari: **218,2**



Xizmatlar: **8,3**



Import


2023- y.: **435,3** +9,1 %

(2022- y.: **399,0**)






Tovarlari: **399,0**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

 TSAda eksport hajmi **226,5** mln. AQSH dollariga (**11,1** % ga ko‘paydi) va import hajmi **435,3** mln. AQSH dollariga (**9,1** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-208,9** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

<p>Braziliya</p> <p>TSA – 142,1</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 142,1</p> <p> 21,5 %</p>	<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 116,6</p> <p>Eksport : 61,4 Import : 55,2</p> <p> 17,6 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 83,1</p> <p>Eksport : 7,9 Import : 75,2</p> <p> 12,5 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 58,9</p> <p>Eksport : 58,6 Import : 0,3</p> <p> 8,9 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 50,0</p> <p>Eksport : 10,6 Import : 39,4</p> <p> 7,6 %</p>
<p>Germaniya</p> <p>TSA – 28,7</p> <p>Eksport : 0,8 Import : 27,9</p> <p> 4,3 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 27,0</p> <p>Eksport : 26,8 Import : 0,2</p> <p> 4,1 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 23,7</p> <p>Eksport : 15,6 Import : 8,1</p> <p> 3,6 %</p>	<p>Belarus</p> <p>TSA – 18,1</p> <p>Eksport : 2,1 Import : 16,0</p> <p> 2,9 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 15,3</p> <p>Eksport : 6,7 Import : 8,6</p> <p> 2,4 %</p>

Xorazm viloyati jahonning **116** mamlakati bilan tashqi savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (**21,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**17,6** %), XXR (**12,5** %), Pokiston (**8,9** %), Turkiya (**7,6** %), Germaniya (**4,3** %) va Qirg'iz Respublikasida (**4,1** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **15,8** foizga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



Pokiston – 58,4



Qirg'iz Respublikasi – 26,6



Tojikiston – 14,4





















Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **6** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **14** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Braziliya	0,0	142,3	142,1
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	0,0	142,3	142,1
Rossiya Federatsiyasi	77,6	119,1	116,6
 <i>Eksport</i>	47,8	73,8	61,4
<i>Import</i>	29,8	45,3	55,2
XXR	97,3	84,6	83,1
 <i>Eksport</i>	19,0	8,3	7,9
<i>Import</i>	78,3	76,3	75,2
Pokiston	5,5	6,7	58,9
 <i>Eksport</i>	4,6	6,5	58,6
<i>Import</i>	0,9	0,2	0,3
Turkiya	59,2	94,4	50,0
 <i>Eksport</i>	18,8	22,4	10,6
<i>Import</i>	40,4	72,0	39,4
Germaniya	4,8	7,6	28,7
 <i>Eksport</i>	0,3	1,5	0,7
<i>Import</i>	4,5	6,4	27,9
Qirg'iz Respublikasi	30,2	27,4	27,0
 <i>Eksport</i>	30,1	26,9	26,8
<i>Import</i>	0,1	0,5	0,2
Qozog'iston	21,3	48,0	23,7
 <i>Eksport</i>	15,5	37,7	15,6
<i>Import</i>	5,8	10,3	8,3
Belarus	2,3	6,8	18,1
 <i>Eksport</i>	1,0	1,6	2,1
<i>Import</i>	1,3	5,2	16,0
Eron	7,6	6,5	15,3
 <i>Eksport</i>	3,8	1,8	6,7
<i>Import</i>	3,8	4,7	8,6

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Tojikiston	3,7	3,4	14,5
	<i>Eksport</i>	3,2	3,2	14,5
	<i>Import</i>	0,5	0,2	0,0
	Turkmaniston	8,1	8,3	9,3
	<i>Eksport</i>	4,6	3,2	2,0
	<i>Import</i>	3,5	5,1	7,3
	Litva	2,1	3,4	9,1
	<i>Eksport</i>	0,1	0,2	1,0
	<i>Import</i>	2,0	3,2	8,1
	Polsha	2,7	5,7	8,9
	<i>Eksport</i>	0,6	0,8	3,4
	<i>Import</i>	2,1	4,9	5,5
	Koreya Respublikasi	17,6	2,6	6,1
	<i>Eksport</i>	0,5	0,2	3,2
	<i>Import</i>	17,1	2,4	2,9
	Yaponiya	0,2	0,4	6,0
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,4	6,0
	Shveytsariya	0,3	1,5	4,9
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,3	1,5	4,9
	BAA	1,2	0,5	4,2
	<i>Eksport</i>	1,2	0,4	0,2
	<i>Import</i>	0,0	0,1	4,0
	Belgiya	0,2	0,6	3,9
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,4	3,9
	Finlyandiya	0,2	0,0	3,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	3,7



XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	661,8	111,1	100,0
Urganch sh.	120,6	109,0	18,2
Xiva sh.	23,6	102,2	3,6
Bog'ot	26,4	83,3	4,0
Gurlan	24,8	2,1 m.	3,7
Qo'shko'pir	24,9	122,7	3,8
Urganch	42,3	109,9	6,4
Hazorasp	41,6	149,6	6,3
Tuproqqal'a	176,1	109,3	26,6
Xonqa	45,3	127,6	6,8
Xiva	22,1	113,8	3,3
Shovot	47,1	106,0	7,1
Yangiariq	34,0	57,0	5,1
Yangibozor	32,1	2,7 m.	4,9

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 176,1

Urganch sh. 120,6

Shovot 47,1

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Xiva 22,1

Xiva sh. 23,6


Gurlan 24,8

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **26,6** % ulush bilan **176,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **3,3** % ulush bilan **22,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **31,9** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,1** %ga oshdi va jami TSAdagi ulushi **68,1** % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra, **211,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **123,6** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **87,6** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

Rossiya Federatsiyasi

TSA – 116,6
Eksport – 61,4
Import – 55,2



Turkmaniston

TSA – 9,3
Eksport – 2,0
Import – 7,3



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 27,0
Eksport – 26,8
Import – 0,2



Ukraina

TSA – 1,0
Eksport – 0,2
Import – 0,8




Qozog'iston

TSA – 23,7
Eksport – 15,6
Import – 8,1



Ozarbajjon

TSA – 0,6
Eksport – 0,6
Import – 0,0



Belarus

TSA – 18,1
Eksport – 2,1
Import – 16,0



Moldova Respublikasi

TSA – 0,3
Eksport – 0,3
Import – 0,0



Tojikiston

TSA – 14,5
Eksport – 14,5
Import – 0,0



Armaniston


TSA – 0,05
Eksport – 0,05
Import – 0,0




Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya (**55,2** %), Qirg'iz Respublikasi (**12,8** %) hamda Qozog'iston (**11,2** %) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **185,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **106,0** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **97,5** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.

XORAZM VILOYATI EKSPORTI




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **167** taga yetdi va ular tomonidan **226,5** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **15,0** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	196,9	226,5	118,7	115,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	60,6	101,2	120,4	166,8	30,8	44,7
Ichimliklar va tamaki	-	1,6	-	686,6 m.	-	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,8	3,4	57,8	87,8	1,9	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3,4	2,4	17,0 m.	69,6	1,7	1,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	-	19,1 m.	-	0,7	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,7	1,6	86,4	2,3 m.	0,4	0,7
Sanoat tovarlari	86,2	80,6	104,8	93,6	43,8	35,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	0,4	71,4	2,2 m.	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	31,3	27,0	2,4 m.	86,2	15,9	11,9
Xizmatlar	9,4	8,3	74,7	88,6	4,8	3,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **96,3 %**ni tashkil etib, ular oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**44,7%**), sanoat tovarlari (**35,6 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**11,9 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	90206,8	153,0
Don mahsulotlari	10402,0	93,5 m.
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	207,9	50,9
Turli xil ovqatlar va preparatlar	152,2	52,2
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	124,8	16,7
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	166,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	6,7	7,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	1649,8	686,6 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	2366,2	74,9
Hayvonot va o'simlik xom ashyosi	679,0	10,1 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	190,4	34,7
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	113,4	-
Po'kak va yog'och mahsulotlari	1,9	4,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	2378,3	69,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyoviy moddalar	513,7	104,0 m.
Bo'yoqlar va taninlar	355,7	115,9
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	221,0	-
Birlamchi shakldagi plastmassalar	155,7	131,7
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	124,8	97,7
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	112,2	89,8
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	109,4	4,8 m.
Organik kimyoviy vositalar	3,0	-


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	70057,7	93,6
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	9689,6	196,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	644,6	28,5
Boshqa metall buyumlar	198,7	4,8
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	24,2	72,2
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	7,9	44,2
Rangli metallar	4,7	-
Rezina buyumlar	2,6	2,9 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	157,0	3,0 m.
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	147,4	3,8 m.
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	63,9	-
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	35,9	-
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	25,7	24,4
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunalari	6,2	-
Boshqa transport vositalari	2,5	-
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalari	1,3	-
Metallni qayta ishlash uskunalari	0,0	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim va kiyim aksessuarlari	21607,9	75,4
Oyoq kiyimlari	3444,7	3,8 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	910,8	11,9 m.
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	493,9	56,7
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	412,1	62,2
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunalari uchun armature	86,1	87,0
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	15,4	-
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalari va optik mahsulotlar	9,3	37,6 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlarga **123,6** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **54,6** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln.
AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Pokiston, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkiya va Xitoy kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **86,3** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	73,8	61,4	154,6	83,2	1	1
Pokiston	6,4	58,6	139,8	9,1 m.	6	2
Qirg'iziston	26,9	26,8	89,4	99,7	3	3
Qozog'iston	37,7	15,6	2,4 m.	41,2	2	4
Tojikiston	3,2	14,5	100,2	4,5 m.	7	5
Turkiya	22,4	10,6	119,6	47,2	4	6
Xitoy	8,3	7,9	43,7	95,1	5	7
Eron	1,8	6,7	46,3	3,8 m.	9	8
Polsha	0,8	3,4	125,4	4,3 m.	16	9
Koreya Respublikasi	0,2	3,2	43,4	14,0 m.	23	10
Iroq	0,4	2,3	48,2	5,4 m.	19	11
Belarus	1,6	2,1	158,6	132,5	11	12
Turkmaniston	3,2	2,0	68,2	63,0	8	13
Gruziya	1,5	1,8	116,6	125,2	12	14
Chexiya	0,0	1,4	11,8 m.	37,3 m.	31	15
Hindiston	0,2	1,2	108,0	5,3 m.	26	16
Litva	0,2	1,0	4,1 m.	4,4 m.	24	17
Germaniya	1,5	0,7	4,7 m.	50,7	13	18
AQSH	0,1	0,7	6,3	5,0 m.	28	19
Vyetnam	0,8	0,7	84,0	85,3	15	20




XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	226,5	115,0	100,0
Urganch sh.	22,7	105,0	10,0
Xiva sh.	10,9	113,2	4,8
Bog'ot	17,4	65,2	7,7
Gurlan	18,5	3,5 m.	8,2
Qo'shko'pir	5,7	37,4	2,5
Urganch	20,6	122,8	9,1
Hazorasp	22,0	143,7	9,7
Tuproqqal'a	12,3	167,8	5,4
Xonqa	26,1	110,8	11,5
Xiva	11,0	68,5	4,8
Shovot	19,8	103,2	8,7
Yangiariq	17,0	150,1	7,5
Yangibozor	21,5	2,5 m.	9,5

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Xonqa tumani **11,5** % bilan **26,1** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **2,5** % bilan **5,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida **87,7** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **24,9** foizga yoki **29,1** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**56,2** %), Rossiya (**31,9** %), Qozog'iston (**9,1** %) hamda Polsha (**0,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **89,4 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **50,7** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **39,5** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	8929,3	50278,6	56,2
 Rossiya Federatsiyasi	41501,9	28551,9	31,9
 Qozog'iston	34736,6	8149,8	9,1
 Polsha	678,7	655,9	0,7
 Eron	306,9	593,4	0,7
 Afg'oniston	339,2	241,9	0,3
 Turkiya	84,5	215,0	0,2
 BAA	74,6	176,0	0,2
 Turkmaniston	393,9	144,0	0,2
 Ukraina	249,7	134,7	0,2
 Boshqa davlatlar	441,3	270,2	0,3

* qiymat ifodasidan




2023- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **56,2** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **76,1** foizga ko'p.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **8,3** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **3,7** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **11,4** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**46,4** %), moliyaviy xizmatlar (**23,7** %), transport (**18,2** %) telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**11,7** %) hissasiga to'g'ri kelgan.

XORAZM VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida import hajmi **435,3** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **9,1** % ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**39,9** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**37,4** %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**7,4** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **36,4** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **435,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	399,0	435,3	193,4	109,1	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	152,3	162,8	10,1 m.	106,9	38,2	37,4
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,2	2,4 m.	2,1 m.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	28,2	32,2	137,0	114,1	7,1	7,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,2	8,7	3,0 m.	168,5	1,3	2,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2,1	2,5	121,2	118,2	0,5	0,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	18,3	17,2	134,4	94,3	4,6	4,0
Sanoat tovarlari	28,2	27,3	2,2 m.	96,8	7,1	6,3
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	148,7	173,6	186,1	116,7	37,3	39,9
Turli xil tayyor buyumlar	15,9	10,8	26,2	68,3	4,0	2,5



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	148143,0	104,1
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	6893,9	2,0 m.
Don va ularning mahsulotlari	3601,2	3,6 m.
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	2363,5	82,2
Tirik hayvonlar	545,0	52,7
Sabzavotlar va mevalar	542,2	2,1 m.
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	443,4	102,3
Har xil ovqatlar va preparatlar	228,5	25,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	205,8	2,1 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'och mahsulotlari	29254,3	117,3
To'qimachilik tolalari	2556,1	2,5 m.
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	198,6	10,8
Tabiiy kauchuk	97,6	60,6
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	84,7	-
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	15,6	6,2
Qog'oz xamiri va makulatura	5,7	-
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	3,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	8201,1	197,6
Ko'mir, koks va briketlar	538,7	52,0
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	2454,7	118,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	7222,7	136,8
O'g'itlar	3205,9	43,6
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1895,6	198,7
Bo'yoqlar va taninlar	1328,4	87,2
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1038,5	91,2
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	981,6	2,8 m.
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	833,0	187,4
Noorganik kimyoviy moddalar	434,5	46,3

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Quyma temir va po'lat	9362,3	157,8
Yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	5849,6	184,6
Metall buyumlar	3303,7	32,5
To'qimachilik iplari, matolar	3230,3	106,2
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	2841,2	87,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	1669,8	82,7
Rezina buyumlar	916,6	2,1 m.
Rangli metallar	109,6	2,8 m.
Teri, charm mahsulotlari va mo'ynalar	1,2	0,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	103965,9	121,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	24979,7	173,9
Avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari	22050,5	176,3
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	15995,4	118,4
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	4884,4	24,9
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	912,0	62,2
Metallni qayta ishlash mashinalari	487,9	40,2
Boshqa transport vositalari	207,4	-
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	122,7	27,5
Turli xil tayyor buyumlar		
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	5087,4	44,1
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	3077,1	84,9
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	1817,4	4,5 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	714,2	5,7 m.
Oyoq kiyimlari	102,8	93,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar	27,9	54,7
Kiyim va kiyim aksessuarlari	11,9	139,0
Sayohat aksessuarlari va sumkalar	3,7	15,4

2023- yil yanvar-sentabr oylari natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlaridan import ulushi **20,1** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **27,2** %ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyati **51** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Belarus va Eron) jami importning **83,7** foizini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr, %da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	142,3	142,1	-	99,8	1	1
XXR	76,3	75,2	97,4	98,5	2	2
Rossiya Federatsiyasi	45,3	55,2	151,8	121,8	4	3
Turkiya	72,0	39,5	178,1	54,8	3	4
Germaniya	6,1	27,9	137,4	4,6 m.	7	5
Belarus	5,1	15,9	4,1 m.	3,1 m.	9	6
Eron	4,7	8,6	125,6	182,3	11	7
Qozog'iston	10,3	8,2	175,7	79,4	5	8
Litva	3,2	8,1	154,0	2,6 m.	13	9
Turkmaniston	5,2	7,3	149,1	141,4	8	10
Yaponiya	0,4	5,9	5,8 m.	13,8 m.	23	11
Polsha	4,9	5,5	2,4 m.	111,3	10	12
Shveytsariya	1,5	4,9	5,5 m.	3,4 m.	16	13
BAA	0,1	4,0	-	35,7 m.	35	14
Belgiya	0,4	3,9	2,2 m.	9,1 m.	22	15
Finlyandiya	-	3,7	-	-	-	16
Koreya Respublikasi	2,3	2,9	13,8	124,1	14	17
Gongkong	0,6	2,2	142,9	3,6 m.	20	18
Italiya	0,3	2,0	54,0	7,3 m.	26	19
Bangladesh	1,6	1,5	123,6	92,4	15	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	435,3	109,1	100,0
Urganch sh.	97,9	110,0	22,5
Xiva sh.	12,7	94,4	2,9
Bog'ot	8,9	181,7	2,0
Gurlan	6,3	96,1	1,4
Qo'shko'pir	19,2	3,8 m.	4,4
Urganch	21,7	99,9	5,0
Hazorasp	19,6	156,9	4,5
Tuproqqal'a	163,7	106,5	37,6
Xonqa	19,2	160,9	4,4
Xiva	11,1	3,3 m.	2,6
Shovot	27,3	108,1	6,3
Yangiariq	17,0	35,2	3,9
Yangibozor	10,6	3,3 m.	2,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **37,6 %** bilan **163,7** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Gurlan tumani hissasiga **1,4 %** bilan **6,3** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **173,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **16,7** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **39,9** %ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-sentabr)




2023- yil yanvar-sentabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **24,9** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **66,7** mln. AQSH dollari (**38,4** %), Turkiya — **28,5** mln. AQSH dollari (**16,4** %) va Germaniya - **23,3** mln. AQSH dollari (**13,4** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-sentabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **27,3** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,2** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **6,3** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR


(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

10,2 mln. AQSH doll,
ulushi – 37,5 %



Rossiya Federatsiyasi

3,9 mln. AQSH doll,
ulushi – 14,2 %



Xitoy Xalq Respublikasi

2,5 mln. AQSH doll,
ulushi – 9,1 %



Turkiya

2,2 mln. AQSH doll,
ulushi – 8,2



Belarus

2,0 mln. AQSH doll,
ulushi – 7,3



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importi asosan quyma temir va po'lat (**9,4** mln. AQSH dollari), yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**5,8** mln. AQSH dollari), metall buyumlar (**3,3** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**3,2** mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**2,8** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.